

INSON O‘ZLIGI, QADRI, XUQUQI VA ERKINLIGI-MANFAATLARINING QONUNY ASOSLARI

Ma'murova Dilaferuz Avazbekovna

Andijon davlat pedagogika Institutining magistranti,

Andijon viloyati Paxtaobod tuman 13-maktabda

ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari.

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti Klinikas

i Anistiziologiya reanimatsiya bo'limi

Anistiziolog vrachi: Umurzaqov Ilyosbek Mehmonaliyevich

Annotatsiya: Ushbu berilgan maqola hozirgi kundagi insonga bekamu ko'st yashash imkoniyatini beruvchi va iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy sohalarda o'z imkoniyat va talablarining amalga oshirilishini ta'minlovchi huquqiy maeyorlar to'g'risida qisqacha fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Jamoat, fuqarolar, kasaba uyushmasi, partiyalar, inson huquqlari, Mehnat kodeksi, Konstitutsiya, qonun, moddalar.

Annotatsiya: Эта статья о деятельности профсоюзов сегодня и о том, как они могут или не могут использовать поддержку профсоюзов работников организациии и школьных учителей. Были высказаны краткие мнения о правах профсоюза.

Ключевые слова: Общество, граждане, профсоюз, партии, права человека, Трудовой кодекс, Конституция, закон, статьи.

Annotation: This article is about union activities today and how they may or may not use union support for organization workers and school teachers. Brief views were expressed on trade union rights.

Key words: Public, citizens, trade union, parties, human rights, Labor Code, Constitution, law, articles

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan huquq va erkinliklar qonunlarning mazmuni va qo'llanilishiga hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning har bir fuqarosiga, uning jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, maslagi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qati nazar, inson huquqlari va erkinliklari buzilmasligini, sud yo'li bilan himoya qilinishini ka-folatlaydi.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi

shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.”¹

(O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 34-moddasi)

O‘zbekiston tarixining mustaqillik yillari avvalgi davrdan farkli o‘laroq aynan istiqbol tufayli yurtimizda inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun zarur shartsharoitlar yaratilgani bilan alohida ajralib turadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, bu O‘zbekiston Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topdi. Unda eng oliy qadriyat sifatida davlat va ijtimoiy tizim emas, balki inson huquqi kafolatlab qo‘yildi. Konstitutsiyamizning 13 moddasida «O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadrqimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi»², deb belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi «Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari» deb atalishining o‘zi Asosiy qonunning insonparvarligini ko‘rsatadi. Uning har bir moddasida fuqarolikka ega bo‘lish va uni yo‘qotish asoslari, shaxsiy huquq va erkinliklar fuqarolarning siyosiy huquqyaari, ularning kafolatlanishi o‘z ifodasini topgan.

Vatanimiz O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach ko‘plab soxalarda kata yutuqlarga erishib kelmoqda. Hususan inson huquqlari, din etiqodi va unga amal qilishi, mehnat faoliyati va mehnat huquqlari borasida prezidentimiz va davlatimiz raxbariyat hodimlari tomonidan yildan-yilga takomillashtirilib, yanada fuqarolarga yengilliklar yaratilib kelinmoqda. Bu borada ko‘plab misolar keltirish mumkin albatta ulardan biri inson qadri, huquqi va erkinlikari faoliyati haqida aytib o‘tsak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘riflaganidek, “Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta‘minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta‘lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz”³

Deb takidlab o‘tkanlar.

¹ O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 34-moddasi. <https://lex.uz/docs/-20596>

² O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 13-moddasi. <https://lex.uz/docs/-20596>

³ “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 172-son (2022-yil 24-avgust)

Davlat qonunlari qanchalik darajada inson o'zligiga qaratilgan bo'lsa, qanchalik tenglik, erkinlik, fikr xilma xilligi yuqori darajada xisobga olingan bo'lsa, bu jamiyat shunchalik farovonlik sari intilaveradi.

Xar bir insonning shaxsiy va xususiy qadri uning qimmatini jamiyatda birinchi galdan qonunlarga bog'liq bo'lsa, negizida jamiyatdagi ijtimoiy muxiti, munosabatlari, bag'rkenglik ruxiyati, umuminsoniy va milliy qadriyatlar insonparvarligi yotadi. Qanchalik darajada jamiyat huquq tizimi insoniylik nuqtai nazaridan toleyrantlikka yondoshgan bo'lsa bu jamiyatda xir bir kishi o'zini erkin tuta oladi va uning ma'rifati bunday extiyojlarga butkul javob beradi.

Davlatimiz rahbari inson rozi qilish va demokratik yo'nalishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, asosiy talab barcha fuqarolar teng, erkin va o'z fikriga ega bo'la olishidir. Ushbu talablarga erishishda kishilarda avvalo ma'rifat yuqori bo'lishidir, ma'rifat tabiiy qonuniyatga ko'ra ma'naviyat bilan bog'liq xolda yuradi. Demakki jamiyat a'zolaridan qa'tiy talab qilinadigan xayot qodeksi umuminsoniy va milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan xar bir insonning o'zi O'zligini anglay olishi, o'z qadrini o'zi qadrlay olishi, o'z erki cheki-chegarasini belgilay olishi, shuning negizida huquq va burchlarini haqqoniy bajarib turilishi talab etiladi.

Respublikada mustaqillik yillarida inson huquqi va erkinliklariga doir bir qator xalqaro hujjatlar tan olindi va ular xalq orasida targ'ib qilina boshlandi. «Inson huquqlari umuminsoniy Deklaratsiyasi», «Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'rtinchi Xalqaro Pakt», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'rtinchi Xalqaro Pakt va fakultativ Bayonnoma» shular jumlasidandir. Ular hozirgi zamon jahon davlatchiligini va jamiyatni demokratlashtirish jarayonida inson huquqlarini mustahkamlashning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayni choqda O'zbekiston inson huquqlariga oid 30 dan ortiq asosiy pakt va Konversiyasiga qo'shilgan. Bu borada shuni aytish kerakki, O'zbekiston 1996 yilning aprel oyida BMT komissiyasiga siyosiy va inson huquqlari bo'yicha Xalqaro Pakt normalarini bajarish borasida milliy ma'ruza matnini taqdim etgan.

“Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar har bir shaxs va O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun taalluqlidir. Asosiy huquq, erkinlik va burchlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular hech bir istisnosiz har bir kishi yoki har bir fuqaro uchun teng va birdir. Davlat u yoki bu asosiy huquqni tan olishida ularni hamma tomonidan amalga oshirish imkoniyatining huquqiy zaminini yaratadi.”⁴

Konstitutsiyamizning shaxs yoki fuqaroning huquq va erkinliklari haqidagi bobi aniq huquq va erkinliklarga bag'ishlangan bo'lib, undagi moddalar mantiqiy tizimni

⁴ H.B. Boboyev. Inson huquqlari T. O'zbekiston. 1997-y. 103-b.

tashkil etadi. Bular huquq va erkinliklarning, shaxs va fuqarolar turmush darajalarining o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etadi. Mana shu belgilarga asoslanib konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni uch guruhga: a)shaxsiy; b) siyosiy; d) ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga bo'lish mumkin.

Shaxsiy huquq va erkinliklar inson erkinligining asosiy jabhalarini qamrab oladi, kishining jamiyatdagi turmushi, yashash va faoliyat ko'rsatish asoslarini ifodalaydi, uning shaxsiy hayotini, xususiy erkinliklarini turli xildagi aralshuvlardan himoya qiladi.

Inson hayoti-qonun tomonidan qo'riqlanadigan oliy ijtimoiy ahamiyatga molik qadriyatdir. Harbir shaxs yashash huquqiga ega bo'lib, hech kim uni o'zboshimchalik bilan mahrum etish mumkin emas. Bosh qomusimizning 24-moddasida ham bu o'z qonuniy tasdig'ini topgan."Yasash huquqi hr bir insonnng uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir"⁵. Mamlakatimizda 2008-yil 1-yanvardan buyon o'lim jazosining bekor qilinganligi ham inson hayoi, uning qadr qimmatini har narsadan ustun ekanligini amalda yana bir bor tasdiqladi.

Bugun O'zbekiston davlati demokratik yo'nalishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, asosiy talab barcha fuqarolar teng, erkin va o'z fikriga ega bo'la olishidir. Ush bu talablarga erishishda kishilarda avvalo ma'rifat yuqori bo'lishidir, ma'rifat tabiiy qonuniyatga ko'ra ma'naviyat bilan bog'liq xolda yuradi. Demakki jamiyat a'zolaridan qa'tiy talab qilinadigan xayot qodeksi umuminsoniy va milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan xar bir insonning o'zi O'zligini anglay olishi, o'z qadrini o'zi qadrlay olishi, o'z erki cheki-chegarasini belgilay olishi, shuning negizida huquq va burchlarini haqqoniy bajarib yurii talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasining "respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib,"⁶ - bosh so'zlaridan biri xar birmizning O'zligimizga qaratilgan maqsaddir. Har bir inson o'ziga munosib hayotni o'zi yaratadi, insonparvar demokratik huquqiy davlat unga buning uchun shart-sharoit, qonun-qoida, ijtimoyi munosabatlar makonini, bag'rikenglik muxitini, fikirlar xilma-xilligi mafkurasini yaratib beradi.

O'zbekiston Respublikasi tasarrufidagi fuqarolar ijtmioyi munosabatlarida, afsuski bir qator muammolar vujudga kelishi mumkin, ular quydagilarda namoyon bo'la oladi. Negaki jamiyatimizning polietnik tarkibi, iqtisodiy imkoniyatlarimizni xozircha cheklanganligi, dunyo xamjamiyati tarkibida faol ishtirok etishimiz va boshqa bunga sabablardir. Bunda "milliy, irqiy, yosh, jins va ularning o'zaro munosabatidagi

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2016-y. 11-b

⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2019. 3 bet.

boshqa farqlar tufayli odamlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro tushunish muammolari psixologik keskinlik, madaniy muhosasizlik, millatlararo tajovuz, diniy ekstremizmning kuchayishiga.”⁷ olib kelishi mumkin. Shu boistanda O'zlikka asoslangan bag'rikenlikni rivojlantirish zarurati mavjuddir. Uni yo'llari ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi: ta'lim (oila, maktab, universitet) va kattalarni o'zgartirish tizimi ikki yo'nalishda: maqsadli, insonning sa'y-harakatlari va harakatlarini boshqa odamlar tomonidan sarflash bilan va beixtiyor, maxsus yo'naltirilmagan holda. biror kishiga hissiy, stressli vaziyat. bag'rikenglik munosabatlarni o'rnatish uchun insonni bir butun sifatida O'zligini qabul qilish va o'zaro ta'sir sharoitida ijobiy tomonga murojaat qilish kerak.

Tom manodagi O'zlikni anglash, uni ko'ra olish, odamlarning tashqi qiyofasi, mavqei, qiziqishlari, xulq-atvori va qadriyatlarini bilan farq qilishini va individualligini saqlab, tinchlikda yashash huquqiga ega ekanligini tan olishni anglatadi. Yosh avlodda o'zlikni shakllantirishning eng samarali usuli bu ta'limdir. Bunday ruhida tarbiyalash tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga va axloqiy qadriyatlarga asoslangan hukmlarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim yosh avlodni jahon sivilizatsiyasining eng yaxshi yutuqlari bilan tanishtirish bilan uyg'unlashtirilishi kerak. Ushbu tizim tafakkurning uzluksizligini, o'z milliy merosiga sodiqlikni va uning jahon ma'naviy taraqqiyotidagi o'rni va o'rnini anglashni, shuningdek, boshqa barcha tizim va an'analarga hurmat va ochiqlikni rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak. Faqat o'z merosiga bo'lgan chuqur va ongli muhabbat insonni boshqalarning his-tuyg'ularini hurmat qilishga undaydi.

Xulosa qilib shuni takidlash mumkinki O'zligini anglagan kishi o'zini qadrini, xurmatini, huquq va burchini to'g'ri anglay oladi. Alommalar aytganlaridek “o'zini xurmat qilgan kishi, albatta o'zgani xam xurmat qiladi.” Bugun davlatimiz, jamiyatimiz, Respublika Konstitutsiyasi asosida inson o'zligini, qadri va erkini keng miqyosda namoyon bo'lishini taminlamoqda. Aynan, Prezidentimiz ham ushbu asnodda “Inson qadri, degan tamoyil asosida ishlab, hamma narsani xalqning muammolaridan kelib chiqib amalga oshiramiz”⁸ – deya takidlashi bizni yuqorida keltirgan fikrlirimizga olib keldi.

⁷ Bezyuleva G.V., Shelamova G.M. Tolerantnost: vzglyad, poisk, reshenie. M. 2003. S.150.

³. Barcha sohalarda O'zbekiston Prezidenti **Shavkat** Miromonovich **Mirziyoevning** so'zlagan nutqlaridan keltirilgan iboralar. <https://mirziyo.uz/>

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 2017 y
<https://lex.uz/docs/-20596>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kasaba_uyushmalari
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kasaba_uyushmalari
4. <https://uzreport.news/society/11-noyabr-ozbekiston-respublikasi-kasaba-uyushmalari-kuni-deb-belgilandi>
5. O`zbekiston respublikasining “Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to`g`risida” qonuni. **9-modda** 02.07.1992 y. N 638.